



MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA KINO SAN'ATINING YUZAGA KELISHI

Xoliqov Shokir Qo'ziboy o'g'li

O'zDSMI "Kino va televideniye rejissorligi" ixtisosligi

2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7835025>

ARTICLE INFO

Received: 08th April 2023

Accepted: 16th April 2023

Online: 17th April 2023

KEY WORDS

*Kino, film, qisqa metrajli film,
kinoteatr, rejissor, kinostudiya.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada kino san'atining Markaziy Osiyoda kino san'atining shakllanishiga nazar tashlangan. Shuningdek har bir mamlakat misolida kenematografiyaning rivojlanish bosqichlari haqida bayon etilgan.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda ham kino san'ati jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bejizga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Biz buyuk xalqimizni ulug'lamoqchi, O'zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san'ati yordamida amalga oshirishimiz kerak. Aynan, kino san'ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz mumkin. Buning uchun yana bir bor kuch va imkoniyatlar, ijodiy salohiyatni ishga solishimiz kerak,"¹ – deb ta'kidlagan.

Kino tarixidan ma'lumki, filmlar endigina paydo bo'lgan yillarda ular to'raligicha qisqa metrajli bo'lgan. Insoniyatda hali tasvirga olish tajribasi bo'lmagan, bugungi kino qonuniyatlari, janrlari va auditoriyasi shakllanmagan, qolaversa, texnik imkoniyatlar to'liq metrajli filmlar suratga olishga imkon bermagan. O'tmishning ko'pgina buyuk kinotasmalari bugungi o'lchamlar nuqtai nazaridan qisqa metr hisoblanadi. Baster Kiton (Joseph Frank "Buster" Keaton 1895—1966 yillarda yashab ijod qilgan mashhur amerikalik komik aktyor va kinorejissor) ishtirokidagi "Kichik Sherlok", qolaversa, Charli Chaplin (Sir Charles Spencer "Charlie" Chaplin 1889 -1977 yillarda yashab o'tgan ingliz komik aktyori, rejissor, bastakor, ovozsiz kino davrining eng muhim shaxslaridan biri)ning "Daydi", "Bank", "Yollangan", "Tinch ko'cha", "Xorijlik" va boshqa filmlari shular jumlasidan. Shu bilan birga, ularni qisqa metr deb atash o'sha zamon nuqtai nazaridan noto'g'ri bo'ladi, negaki u davrda qisqa metrajli hamda to'liq metrajli film tushunchalari aniq shakllanib ulgurmagani edi. Chunki, "XX asrning birinchi o'n yilligigacha suratga olingan barcha filmlar qisqa metrajli bo'lgan. Albatta, ilk kinematografning texnik imkoniyatlari 20 daqiqadan ortiq film yaratishga yo'l bermagan"².

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy kino san'ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish" masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan // Ma'rifat, 2017, 30-dekabr, № 104. – 2 bet.

² Kasimova N. Formation of Cinematography as Short Films in the World // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – Lisboa, 2023. – P. 151.



Ilmiy manbalarda “Haqiqatan ham, 1913-yilga qadar tasvirga olingan filmlar 15 daqiqa yoki undan ham kam vaqt davomiylikka ega bo‘lgan,”³ – deb ta’kidlanadi.

Filmlarning Markaziy Osiydagi birinchi namoyishi 1897 yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan, ammo bu degan so‘z kino san’atining paydo bo‘lishi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi degani emas. Markaziy Osiyoda kino san’at sifatida bir necha bosqichlarni bosib o‘tish evaziga shakllangan. Birinchi xususiy kinoteatrlar 1910 yilda Verniy (Olmaota) shahrida ishlay boshlagan. XX asr boshlarida Qozog‘istonda bor-yo‘g‘i 13 ta kinoteatr mavjud edi.

“Qozog‘iston hududida birinchi professional filmlar Rossiya kinoijodkorlari tomonidan 1920-yillardan boshlab suratga olinadi. “Qozog‘iston SSRning besh yilligi” filmi Respublikada suratga olingan birinchi hujjatli filmidir. 1929 yilda Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi “Vostokkino” trestining ishlab chiqarish bo‘limi laboratoriya, tahrirlash, animatsiya va yozuv yozish ustaxonasi Olmaotada ish boshladi (1931 yilda yopildi)”⁴.

1934 yilda “Vostokkino” negizida Olma-Ota kinoxronika studiyasi tashkil etildi. Tez orada bu studiya “Sovet Qozog‘istoni” kinojurnalini va keyinchalik badiiy filmlarni muntazam ravishda ishlab chiqarishni boshladi. “1939-yilda “Amangeldi” badiiy filmi suratga olindi, u “Qozoq badiiy kinosining to‘ng‘ich farzandi” deb nomlandi”⁵, chunki uning bosh personaji birinchi marta xalq qahramoni obrazini gavdalantirgan edi.

1954 yilda mahalliy rejissyor (qozoq) Shaken Aymanov birinchi badiiy film - “Muhabbat she‘ri”ni suratga oldi. “1960-yilda badiiy va kinoxronika filmlari bo‘yicha Olmaota kinostudiyasi “Qozoqfilm” kinostudiyasi deb o‘zgartirildi”⁶. XX asrning 60-70-yillari qozoq kinematografiyasining gullagan davri bo‘ldi.

O‘zbekistonda milliy kinematografiya Oktyabr inqilobidan keyingina paydo bo‘lgan. Qisqa vaqt ichida Turkiston shaharlarida, xususan, Toshkentda kino namoyishi uchun mo‘ljallangan ko‘plab statsionar xonalar paydo bo‘ldi. 1912–1914 yillarda Toshkentda 15 ga yaqin kinoteatr bo‘lgan. 1920-yil oxirida Turkiston o‘lkasida ilgari mavjud bo‘lgan kinoprokat idoralari milliy lashtirildi.

1924-yil 13-fevralda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati o‘zining kino ishlab chiqarishni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorini qabul qildi va Rossiya kino tashkilotlariga yordam so‘rab murojaat qildi. Natijada “Buxkino” rus-buxoro hamkorligi tuzildi va o‘sha yili Leningradning “Sevzapkino” kinostudiyasi bilan birgalikda birinchi badiiy film ishlab chiqarildi. 1925-yilda “O‘zbekgoskino” tresti tashkil etilib, “Sharq yulduzi” kinofabrikasi ochildi.

Butun O‘rta Osiyoda birinchi ishlab chiqarish kinostudiyasi “O‘zbekgoskino” (1958 yildan “O‘zbekfilm” kinostudiyasi), turli mavzularda xronika jurnallari va ilmiy-ommabop filmlar ishlab chiqara boshladi. Rejissor Nabi G‘aniyev tomonidan suratga olingan “Ko‘tarilish” (1931) filmidan boshlab o‘zbek milliy kinematografiyasini sanash mumkin. 30-yillarning birinchi yarmida birinchi tarixiy film va birinchi bolalar filmi suratga olindi. 1937 yilda ilk ovoqli “Qasamyod” (rej. V. Usoltsev) filmi suratga olindi.

³ Cooper P. and Dancyger K. Writing the Short Film. 3rd ed. – California: Elsevier/Focal Press, 2005. – P. xi.

⁴ Qozog‘iston kinoentsiklopediyasi. – Olmaota, 2010. – 2 -bet.

⁵ Abikeeva G. Qozog‘istondagi kino sanoatidagi vaziyatni va tegishli qonunchilik hujjatlarini baholash. YUNESKO loyihasi: Markaziy Osiyoda kino sanoatini mustahkamlash. – 2020. – 3-bet.

⁶ Qozog‘iston kinoentsiklopediyasi. – Olmaota, 2010. – 16 -bet.



Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekistonga Moskva, Leningrad, Kiyev kinostudiyalari evakuatsiya qilindi. 1959-yilda o'zbek kino ijodkorlari "O'zbekfilm" kinostudiyasining yangi binosiga ko'chib o'tdilar va bu erda o'zbek kino ijodkorlarining yangi avlodi vakillari o'zlarini tezda namoyon qildilar.

XX asr ning 1911-1914-yillarda Pishpek (hozirgi Bishkek) shahrida ilk kinoteatrlar ochilgan. "1920 yilga kelib Qirg'izistondagi deyarli barcha shaharlarda kinoteatrlar barpo etiladi. Ularda "Qirg'iz bozorida", "Cho'l ko'chmanchilari – qirg'izlar" kabi etnografik qisqa metrajli filmlar namoyish qilinardi".⁷ 1925 yildan boshlab birinchi jiddiy ilmiy-hujjatli, hujjatli-sahnali va badiiy filmlar suratga olindi. 1937 yilda Frunze (hozirgi Bishkek) shahrida "Soyuzkinoxronika" studiyasining Toshkent bo'limining doimiy muxbirlari tashkil etildi; Bu voqea qirg'iz kinematografiyasi taraqqiyoti tarixidagi eng muhim bosqichlardan biriga aylandi. O'sha vaqtlarda yiliga bir yoki ikkita to'liq metrajli filmlar suratga olingan xolos.

1938 yilda shaharda birinchi keng ekranli kinoteatr ochildi. 1940 yilga kelib shaharda 20 ta kinozallar mavjud edi. 1941 yil 17 noyabrda Qirg'iziston SSR Xalq Komissarlari Soveti Frunze shahrida (hozirgi Bishkek) kinoxronika studiyasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu kun rasman qirg'iz kinematografiyasining tug'ilgan kuni hisoblanadi.

1945-yildan boshlab studiya o'z bazasida ilk to'liq metrajli hujjatli va badiiy filmlarni ishlab chiqara boshladi. Frunzening o'zida ham, Respublikaning boshqa shaharlarida ham keng ekranli yangi kinoteatrlar ochiladi. Shu davrdan boshlab qirg'iz kinosida texnik baza, prokat tizimi, hujjatli va badiiy filmlar bo'yicha yangi sistema shakllandi, bu esa keyinchalik 60-yillarda qirg'iz kinosining gullab-yashnashiga olib keldi.

Zamonaviy Tojikiston hududida birinchi suratga olish ishlari 1910-20 yillarda asosan chetdan tashrif buyurgan kinoijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan va yaratilgan asarlar etnografik xususiyatga ega bo'lgan. Aynan shu davrda Xo'jand, Istravshan, Konibodom, Dushanbeda ilk kinoteatrlar ochilgan. 1929-yilga kelib, "Narkompros kino ishlab chiqarish laboratoriyasi" da mustaqil kino ijodkorligi yo'lga qo'yilgan. 1930-yilda kino ishlab chiqarish laboratoriyasi negizida "Tojikino" tresti (keyinchalik Stalinobod kinostudiyasi) tashkil etilgan bo'lib, u dastlab har oy "Sovet Tojikistoni" kinojurnallari (kinoreportajlar to'plami) ishlab chiqarish va kinoprokat bilan shug'ullangan. Oradan ko'p o'tmay "Tojikino" "Tojikfilm" davlat kinostudiyasi deb o'zgartirildi.

Badiiy filmlar ishlab chiqarishning boshlanishi 1932-yilga to'g'ri keladi, bu davrda "Amirlar o'lganida" to'liq metrajli filmi Tojikistonga kelgan birinchi ayol kinorejissor Lidiya Pechorina tomonidan yaratilgan. Ulug' Vatan urushi (1941-1943) yillarida Stalinobod kinostudiyasi Moskvadagi "Soyuzdetfilm" bolalar va o'smirlar filmlari kinostudiyasi (keyinchalik M. Gorkiy nomidagi kinostudiya) bilan birlashtirildi. Uning asosiy vazifasi kino ishlab chiqarish uchun yangi kinolaboratoriya qurish edi. Urush oxiriga kelib, kinostudiya ko'plab kinematografiya mutaxassisliklari bo'yicha o'zining ishchi kadrlarini shakllantirdi, bu esa XX asrning ikkinchi yarmida tojik kinosining rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, kino sohasidagi qonunchilik bazasini yangilash, uni yangi qonunlar va tegishli me'yoriy hujjatlarni qabul qilish orqali zamonaviy kino sanoati ehtiyojlariga moslashtirish masalalarini ko'rib chiqish maqadga muvofiq.

⁷ Лузанова Е. С. Киноискусство в Кыргызстане: Учебное пособие. – Бишкек: Центр «Устатшакирт», 2015. – С. 7-8.



Qolaversa, ijodkorkorlarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha shakllarini ko'rib chiqish zaruriy masallalardan biridir. Kino san'atida sarmoya kiritayotgan homiylar va biznes vakillarini rag'batlantirish, shuningdek, kino san'atining investitsiya jozibadorligi uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish lozim. Maqsadlar qanchalik yuqori bo'lsa xarajatlar ham shunga yarasha katta bo'lishini taqozo qiladi. Shunday ekan moddiy-texnika bazani yaxshilash maqsadida tarmoqlarning texnik va texnologik jihozlanishiga e'tibor qaratish zarur. Oldimizda turgan eng katta masalalardan biri bu chet el bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. Mintaqa davlatlari va xorijiy davlatlar bilan birgalikda filmlar ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro shartnomalar tuzish o'zbek kinematografiyasini yangi bosqichga chiqishiga imkoniyat yaratadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Milliy kino san'ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish" masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan // Ma`rifat, 2017, 30-dekabr, № 104.
2. Kasimova N. Formation of Cinematography as Short Films in the World // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. – Lisboa, 2023.
3. Cooper P. and Dancyger K. Writing the Short Film. 3rd ed. – California: Elsevier/Focal Press, 2005.
4. Qozog'iston kinoentsiklopediyasi. – Olmaota, 2010.
5. Abikeeva G. Qozog'istondagi kino sanoatidagi vaziyatni va tegishli qonunchilik hujjatlarini baholash. YUNESKO loyihasi: Markaziy Osiyoda kino sanoatini mustahkamlash. – 2020.
6. Лузанова Е. С. Киноискусство в Кыргызстане: Учебное пособие. – Бишкек: Центр «Устатшакирт», 2015.